

O'ZBEK TILIDAN FOYDALANISHDA
QILINAYOTGAN XATOLAR

Shohsanam Umirova ¹

¹ SamDTU Tibbiy profilaktika,
jamoat salomatligi va tibbiy biologiya
fakulteti 1-kurs talabasi

Dilnoza Mamanova ¹

¹ Ilmiy rahbar: SamDTU O'zbek tili va adabiyoti,
rus tili bilan kafedrası assistenti

MAQOLA
MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.12.2024

Revised: 29.12.2024

Accepted: 30.12.2024

KALIT SO'ZLAR:

Til, o'zga tillar, jargon
so'zlar, fonetika,
morfologik shakl,
sintaksis, stilistik,
orfoepiya, orfografiya,
imloviy xatolar.

Ushbu maqolada o'zbek tilida eng ko'p
qo'llaniladigan imlo, fonetik, morfologik, sintaktik,
stilistik, orfoepik, orfografik xatolarga nazariy
jihatdan munosabat bildirib, tahlil va tadqiq
qilingan. Og'zaki va yozma nutqda keng
uchraydigan xatoliklar qiyosiy tahlil qilingan.
Shuningdek ularning asosiy sabablari va ba'zi
yechimlar keltirilgan.

KIRISH. O'zbek tilda yozma va og'zaki nutqdan foydalalanishda juda ko'p biz ilg'agan yoki ilg'amagan jiddiy xatolar uchramoqda. Bunga shevalashgan so'zlarni ishlatish, savodxonligimizning yetarli darajada emasligi, tilimizga bo'lgan hurmatning pastligi va o'zga tillarga oid so'zlardan nutq davomida ko'p foydalanish sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda o'zbek tilidan foydalanishda fonetik, morfologik, sistaktik xatolar uchramoqda. Fonetik xatolar - bu so'zlarning talaffuzida tovushlar bilan yuzaga keladigan xatolardir. Ular tildan foydalanuvchi va o'rganuvchilar uchun umumiy muammo hisoblanadi. Masalan, so'zlashuv uslubidagi so'zlar va o'rganilayotgan biror-bir til hamda yozma adabiy nutq o'rtasidagi farqlar fonetik xatolarni keltirib chiqarishi tabiiy holdir. Xususan, o'zbek tilida urg'u, intonatsiya va ayrim harflarning talaffuzida xatolar kuzatilishi mumkin. Talaffuzda qisqa unli qo'shib, lekin yozuvda ifoda etilmaydigan so'zlarda uchratamiz. (sinf – sinif yoki snif, fikr – fikir, ilm – ilim, aql - aqil kabi.) Qardosh tillardan kirib kelgan so'zlarda tovushlarning noto'g'ri aytilishi ham keng tarqalgan. Bunday xatolarni bartaraf etish uchun talaffuz mashqlariga e'tibor qaratish muhimdir. O'rganuvchilar talaffuz texnikalarini o'rganib, audio materiallardan foydalangan holda o'z ko'nikmalarini oshirishlari mumkin.

=====

Morfologik xatolar odatda soʻzlarning notoʻgʻri shakllarini ishlatishdan kelib chiqadi. Bunday koʻrinishdagi xatolar asosan yozma nutqda yaqqol koʻzga tashlanadi. Ayniqsa, boʻgʻiz undoshi h va chuqur til orqa undoshi x tovushlari ishtirok etgan soʻzlarda (huquq yoki xuquq, hamma yoki xamma, hayvon yoki xayvon), til oldi t va d (tatbiq yoki tadbqiq, tadqiqot yoki tatqiqot), qoʻsh unidan tashkil topgan soʻzlarda (manfaat yoki manfat, inshoot yoki inshoat, mudofaa yoki mudofa), paronimlarni ishlatish boʻyicha gap mazmuni uchun mos soʻzni tanlash uchun asir-asr, sher-sheʻr, amr-amir, hol-xol, afzal-abzal kabi. Qolaversa, shu shakldagi xatolar soʻzlarga egalik va kelishik qoʻshimchalarini qoʻshishganda fonetik oʻzgarishlar: tovush tushishi, tovush almashinishi va tovush ortishi tufayli yuzaga keladi. Bunday xatolarni oldini olish uchun imlo qoidalarini va tildagi qoidalarini yaxshi bilish muhimdir. Statistika maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, yozma matnlarda morfologik xatolar umumiy xatolarning 15-20 foizini tashkil etadi.

Sintaktik xatolar matnni tuzishda grammatik jihatdan soʻzlarni va qoʻshimchalarni qoʻshish bilan sodir boʻladigan tuzatishlarni talab qiluvchi holatlardir. Ushbu xatolar odatda gap tuzilishi, soʻz tartibi, bogʻlovchilarni notoʻgʻri qoʻllash yoki oʻta uzun yoki chalkash gaplar tarkibida boʻlishi mumkin. Sintaktik xatolar yozma va ogʻzaki nutqda tushunishni qiyinlashtirishi yoki matnda izchillikni yoʻqolishiga olib keladi. Yozuvchilarning badiiy asarlari, umuman badiiy uslub bundan holi boʻlmaydi, chunki sheʼrlar va ayrim badiiy jumalalarda grammatik gap strukturasiga toʻliq amal qilinmaydi. Inversiya hodisasi – gapda gap boʻlaklarining oʻrnini oʻzgarishi tufayli yuzga kelgan, sheʼriy va sajli (ichki qofiya) jumalardagi badiiy uslub tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek gapda koʻpincha koʻmakchilarni, kelishik qoʻshimchalarini yoki tushirib qoldirilgan kesimlarni notoʻgʻri ishlatib, xatolarga yoʻl qoʻyishadi.

Stilistik xatolar matnni ifodalashda uslubiy kamchiliklarga ishora qiladi. Xususan, notoʻgʻri soʻz tanlovi, ifodani mazmunsiz qilish, takrorlash, noaniq yoki chalkash gap yoki matn hosil boʻlishiga olib keladi. Yozma nutqda stilistik xatolar asarning umumiy taʼsirini kamaytirishi yoki tushunishni qiyinlashtirishi mumkin. Bunga adabiy asarlar, ilmiy maqolalar va kundalik matnlarda duch kelamiz. Ushbu xatolarni kamaytirish uchun sinchkovlik bilan tahlil qilish va tahrirlash zarur. Malakali tahrir jarayonida har bir soʻz va ifodaning vazifasi tekshiriladi. Stilistik kamchiliklarni aniqlash va tuzatish matn sifatini oshirishda muhim qadamlardan biridir.

Orfoepik va orfografik xatolar oʻzbek tili talaffuzida qoʻllaniladigan notoʻgʻri usullardir. Odatda bu xatolar fonetik oʻzgarishlar, shevaga oid soʻzlar taʼsirida yoki xorijiy tillardan kirib kelgan soʻzlar sababli yuzaga keladi. Masalan, “tushundim” oʻrniga “chundim,” “toʻymoq” oʻrniga “tuymoq” bunda maʼno umuman oʻzgarib “sezmoq” maʼnosiga oʻtib ketadi. yoki “yoʻq” oʻrniga “yuq,” “tibbiyot universiteti” uchun “med” qisqartmasining ishlatilishi va shu kabi koʻplab misollarni har kuni qayta-qayta uchatib, faol soʻzlashuvda ishlatmoqdamiz. Bularning asosiy sababi birinchidan, foydalanuvchi haqiqatdan maʼlum

so'zlarning imloviy yozilish qoidasidan bexabar. Ikkinchidan, ular uchun xuddi shunday ishlatish refleksi bo'lib qolgan. Uchinchidan, xato yozilgan so'zlarga o'rgatuvchi yoki o'qituvchilar tomonidan tuzatishlar kiritmasligidir. Bu xatolarni bartaraf etish uchun til bilimiga, savodxonlikka e'tibor qaratish, talaffuz qoidalariga amal qilish va o'z xatolari ustida ishlash kerak.

Orfoepik va orfografik xatolar til o'rganishda talabalar uchun qiyinchilik tug'dirishi tabiiy. O'zbek tilida to'g'ri talaffuzga e'tibor berish orqali bunday xatolar kamayadi va tilning sofliqini saqlashga yordam beradi. Orfografik xatolar ko'pincha yozuv jarayonida shoshmashoshlik va e'tiborsizlik natijasida yuzaga keladi. O'zbek tilida orfografik xatolar kamida 30% hollarda foydalaniladigan murakkab qoida va istisnolarga bog'liq. Bular asosan tovushli harflar, qo'shimchalar va urg'u bilan bog'liq. Jumladan, "q", "g" va "o" harflari bilan bog'liq xatolar keng tarqalgan. Yana bir muhim omil — kirill va lotin alifbolari o'rtasidagi farqlar bo'lib, bu 60% o'quvchilar uchun noqulaylik tug'diradi. O'zbek tili grammatikasi 40 dan ortiq qoidalar, 50 dan ortiq istisnolarni o'z ichiga oladi. Dasturiy ta'minot, turli elektron dasturlar yordamida matnlarni tekshirish xatoliklarni sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi.

Leksik xatolar, asosan, so'zlarning noto'g'ri qo'llanishi yoki ma'nosida noaniqlikni keltirib chiqaradi. Ko'pincha bu xatolar sinonimlar, paronimlar yoki omonimlar qo'llanilganda yuzaga keladi. Masalan, "muammo" o'rniga "masala" so'zining noto'g'ri ishlatilishi leksik xatoni paydo qiladi. Ba'zi hollarda, chet tilidan olingan atamalar noto'g'ri talqin qilinadi yoki o'zbek tiliga noto'g'ri tarjima qilish hamda muqobil variantini qabul qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Leksik xatolarni minimallashtirish uchun lug'atlardan foydalanish yoki mutaxassislardan tegishli darslar olish tavsiya etiladi. O'zbek tilidagi keng tarqalgan leksik xatolar soni haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas, lekin ularning oldini olish muhimdir.

Talaffuzdagi xatolar o'zbek tilida keng tarqalgan muammolardan biridir va ularning oldini olish uchun turli usullar qo'llaniladi. Masalan, o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish maqsadida nutq darslari va mashqlari o'tkaziladi. Masalan, o' tovushi u sifatida aytilishi yoki g tovushi q sifatida talaffuz qilinishi mumkin. Bu xatolarni bartaraf etishda o'qituvchilar, lingvistlar va nutq terapevtlari faol ishtirok etishi lozim. Talaffuzdagi to'g'ri o'zgarishlar madaniy merosni saqlab qolishga yordam beradi.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida bir necha o'nlab so'zlarni xato yozishga odatlanib qolgan. Biz bugun aytmoqchi bo'lgan so'zlarning qo'llanishi xato ekanligini yo bilamiz, yo bilmaymiz. Bunday so'zlar kundalik nutqda ko'p qo'llanishi natijasida to'g'ridek tuyuladigan va xato ekanligi bir qarashda sezilmaydigan bo'lib qolgan, ammo na leksik, na orfografik me'yorlarga javob beradi. Hatto ayrimlari o'zbek tilining so'z yasaliishi, shakl yasaliishi qoidalariga mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

Ommaviy axborot vositalarida eng ko'p xato yoziladigan so'zlar sifatida *bo'layapti*, *borayapti*, *yozayapti*, *ketayapti* kabilarni ko'rsatsa bo'ladi. Hatto ommabop gazeta va jurnallarda ham shunday xatoliklar bor. Xo'sh, buning nimasi xato, binoyidek-ku, deyishingiz aniq. Xato shundaki, *bo'l*, *bor*, *yoz*, *ket* so'zlaridan keyin qo'shilayotgan -**a** qo'shimchasida. Agar biz *bo'layapti*, *borayapti*, *yozayapti*, *ketayapti* deb yozsak, bitta so'zga zamon qo'shimchasini ikki marta – takror-takror qo'shgan bo'lamiz. Aslida bu so'zlardagi hozirgi zamon ma'nosini **-yap** qo'shimchasi ifodalay oladi. **-a** qo'shimchasi esa kelasi zamonniki. Bitta so'zga kelasi va hozirgi zamon qo'shimchalarini qo'shib bo'ladimi?! Albatta, yo'q. To'g'ri yozish qoidalariga ko'ra, *bo'l*, *bor*, *yoz*, *ket* kabi so'zlardan keyin **-a** qo'shimchasi qo'shilmasligi lozim. Aksincha, *bo'l+yap+ti*, *bor+yap+ti*, *yoz+yap+ti*, *ket+yap+ti* deb yozsak xato qilmaymiz. Shuningdek reklama va afishalarda so'z va atamalarning xato qo'llanilganiga har kuni ko'zimiz tushadi. Unlardagi so'zlar biz uchun namuna va durturilamal sifatida tushuniladi. Biz esa yozma nutqda xuddi shunday xatolarni yozishiga va faol xato so'zlarning vujudga kelishiga sababchi bo'lamiz.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda o'zbek tilidan foydalanishda ko'p xatolar qilinayotganligi hech kimga sir emas. Bizning nazarimizda, bunday xatolarning kelib chiqishiga boshqa tillardagi so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashib ketayotganligi, shevalashgan so'zlar va eng yomoni jargon so'zlar deb hisoblaymiz. Masalan, rus tilidan kirib kelgan naushnik ya'ni quloqchin, vodakanal, va hokazolar. Eng achinarli holat mana shunday so'zlarga ko'p e'tibor berib, asl o'zbek tilining unitilishi hamda undan noto'g'ri foydalanishda kuzatilmoqda. Xatolarning asosiy qismi savodsizlikdan va bee'tiborlikdan paydo bo'lar ekan, har bir shu til vakili bu uchun mas'ul hamda ona tili deb atovchi tilga munosabatini o'zgartirishi maqsadga muvofiq. Zero o'z tili uchun o'sha millat javobgar, chetdan boshqa til egasi kelib to'g'ilashi yoki o'z so'zini kiritishga haqli emas. Shunday ekan, har birimizdan til grammatik, orfoepik va orfografik sohalarini chuqurroq o'zlashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Choriyev.T. O'zbek tili, o'quv qo'llanma. Iqtisod-Moliya. T.;. 2008
2. Turdiyeva.K. O'zbek tili, o'quv qo'llanma. Musiqa nashriyoti.T.;2007
3. Маманова, Д. (2024). Значение и методические концепции преподавания узбекского языка иностранных студентов. *in Library*, 2(2), 529-525.
4. Маманова, Д. (2024). Использование современных методов при преподавании медицинских терминов иностранным студентам в медицинских вузах. *in Library*, 2(2), 313-315.
5. Irgasheva, D. M. (2024). MANUAL FEATURES OF WORDS DENOTING A SIGN IN THE CATEGORY OF ADJECTIVES. *Results of National Scientific Research International Journal*, 3(4), 170-174.
6. Maxsudjonovna, I. D., & Abdumanonovna, A. P. Philology as the Art of Understanding. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, (2), 1-3.